

O'QUVCHILARDA NUTQIY FAOLLIKNI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID METODLAR

Ergasheva Madina Nizomjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 4-bosqich talabasi

Madinaergasheva069@gmail.com

Tel: 998883401104

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqning og'zaki va yozma shakllari, ularning turlari, og'zaki nutqning xossalari hamda nutqni rivojlantirish usullari va metodlari batafsil yoritilgan. O'quvchilarning nutqini rivojlantirishga oid metodlar amaliy jihatdan tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, fonetik mashqlar, lingvistik mashq va topshiriqlar, monologik va dialogik nutq, usul va metodlar.

Annotation: This article provides a detailed discussion of oral and written forms of speech, their types, the characteristics of oral speech, as well as methods and techniques for developing speech. The methods aimed at developing students' speech are explained from a practical perspective.

Keywords: Speech, oral speech, written speech, phonetic exercises, linguistic exercises and tasks, monologic and dialogic speech, methods and techniques.

Kirish. Hozirgi vaqtda ma'lum bir kasb va mutaxassislikda ma'lum bir muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, shu sohaning yetuk bilimdoni bo'lishi, qolaversa ba'zi xorijiy tillarni yaxshi bilishi, ijtimoiy muhitda o'z fikrini bimalol aniq va qisqa, tinglovchi shaxsga to'liq tarzda yetkazib bera olish ham muhimdir. Shu bois yoshlarning savodxonlik salohiyotini oshirish, og'zaki nutqini rivojlantirish, ularni kelajakdagi ishlarida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun poydevor yaratadi.

O'zbek tilida ravon va ta'sirchan nutq so'zlash uchun aforizm, frazeologizmlardan, hikmat, hadis va rivoyatlardan samarali foydalanishni o'rganish kerak, chunki siyosiy nutqlardan tortib, oddiy maishiy suhbat, davralardagi individual nutqqacha maqol va aforizmlardan, obrazli iboralardan foydalaniladi. Nutq deganda, aloqa jarayonida tilning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi, voqealanishi tushuniladi. Nutq tilning uzviy, hal etuvchi bo'lagi bo'lib, tilning barcha tomonlarini namoyish etadi. Tilshunoslikda nutq

monologik va dialogik turlarga bo'linadi. Monologik- bu bevosita gapirish, dialogik esa gapirish bilan birga tinglab tushunish jarayoni. Monologik- bir shaxsning kimgadir qaratilgan nutqi bo'lib, unda fikrni aniq, to'liq, tushunarli tarzda ifodalash zarur. Nutqni qanday usulda bayon qilishimiz o'zgalarga qay holda yetkazishimizga ko'ra, nutqni og'zaki va yozma nutq turlariga ajratishimiz mumkin. Og'zaki nutq murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning yordamida og'zaki verbal muloqot amalga oshiriladi. Og'zaki nutqni o'stirish ona tili ta'limida alohida yondashuvni talab qiladi. O'qib tushunish va tinglab tushunish jarayonida tayyor til materiali beriladi. Og'zaki nutq yaratish uchun esa so'zlovchi faqat tilning sintaktik-morfologik tizimi, balki so'zlar birikuvchanligi tizimini ham bilishi zarur. Og'zaki nutqning psixofiziologik mexanizmlari mavjud:

1. Sabab (motiv). Avvaliga insonda nimadir aytish ehtiyoji, maqsad paydo bo'ladi.
2. Dasturlash (modellastirish). Aytiladigan gapning asosi, modeli xayolan tuziladi.
3. Qurish. Aytiladigan jumla fikrda tuziladi, uning uchun zarur grammatik shakl, tovushlar, so'zlar ohang tanlanadi.
4. Gapirish (so'zlash). Fikrlar til orqali ifodalanadi.
5. Nazorat. Aytilgan jumladan xatolar izlanadi, tuzatiladi.¹⁷

Og'zaki nutqning yuzaga kelishidan so'zlashuv uslubi juda katta ahamiyatga ega, bu uslubda ohang -intonatsiyaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ohang og'zaki nutqning reallashuvida til birliklaridan keyingi muhim hal qiluvchi vosita bo'lib, uning nutq tempi, pauza, ton, melodiya, tovush tembi, so'z va gap urg'usi kabi ko'rinishlari ma'noni farqlashda, ottenkalarni ajratib ko'rsatishda, hayajonni kuchaytirishda xizmat qiladi. So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy va norasmiy erkin muloqot jarayonida til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanishidir.

Yozma nutqning ham o'ziga xos turlari mavjud bo'lib ular quyidagilar:

- 1) badiiy nutq.
- 2) ilmiy nutq.
- 3) publitsistik nutq.
- 4) rasmiy nutq.
- 5) neytral nutq.

O'quvchi o'z fikrini yaxshi, ravon va ishonch bilan bayon eta olsagina, u jamiyatda faol va muvaffaqiyatli shaxs bo'lib shakllanadi. Og'zaki nutq jarayoni o'z-o'zidan rivojlanadigan ko'nikma emas. Uni ustida ishlash, rivojlantirish kerak. Bu doimiy mashq, faol muloqot, eshitish va ifodalash jarayonlari orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa dars jarayonida so'zlashuvga yo'naltirilgan metodlar, interaktiv usullar, guruhlarda ishlash,

¹⁷ To'xtaev N. va boshqalar. Nutq madaniyati. -Toshkent: O'zbekiston, 2016.

suhbatlar, bahs-munozaralar kabi faoliyatlar qo'llanilganda, o'quvchining til boyligi, nutq madaniyati va tafakkuri rivojlanadi. Og'zaki nutqni rivojlantirishning asosiy usullariga "Erkin fikrlar maydoni", "So'z san'ati", "Jonli so'zlar sahnasi", "So'zlar yulduzi" singari metodlar orqali o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishimiz mumkin.

1. "Erkin fikrlar maydoni" metodi.

Maqsadi:

O'quvchilar fikrini bimalol aytishiga, savollarga ravon javob berishiga, mulohaza yuritish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Mohiyati:

O'qituvchi mavzu doirasida savollar beradi, o'quvchilar esa og'zaki shaklda javob berishadi yoki o'zaro fikr almashishadi.

Darsda qo'llash shakli: Bu metoddan o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirishganini aniqlab olsa bo'ladi. Qiziqarli savol-javoblar ham o'quvchini darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

2. "So'z san'ati" metodi.

Maqsadi:

Fikrni izchil, mantiqiy va ifodali bayon etish ko'nikmasini rivojlantirish.

Mohiyati:

O'quvchi rasm yoki matn orqali og'zaki hikoya tuzadi. Hikoya tuzish orqali o'quvchining og'zaki nutqi yanada rivojlanadi, so'z qo'llash mahorati oshadi. Natijada o'quvchi o'z fikrini izchil mantiqan bog'langan holda bayon eta oladi, so'z boyligi kengayadi hamda nutqning ifodaliligi va aniqliligi ta'minlanadi.

3. "Jonli so'zlar sahnasi" metodi.

Maqsadi:

Ifodali nutq, emotsiya va roldagi til vositalarini shakllantirish.

Mohiyati:

O'quvchi ertak yoki hikoyadagi qahramon rolini ijro etadi.

Darsda qo'llash shakli: O'quvchi qahramon rolini ijro etar ekan, so'z boyligidan to'g'ri va ifodali foydalanishga, talaffuzni to'g'ri qo'llashga harakat qiladi. Obrazga kirish jarayonida esa, o'ylash his qilish va mustaqil fikr bildirish orqali ijodkorlik rivojlanadi.

4. "So'zlar yulduzi" metodi.

Maqsadi:

Lug'at boyligini oshirish, so'zlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam berish.

Mohiyati:

Bitta asosiy tushuncha atrofida bog'liq so'zlarni guruhlab, gap tuzish.

Darsda qo'llash shakli: Juftlikda ishlash shakli- o'quvchilar ikki kishilik guruhda asosiy tushunchani tanlab unga bog'liq so'zlarni topadilar va shu asosda gaplar tuzadilar. Yoki interfaol o'yin shaklida – “So'z zanjiri”, “Aqliy hujum”, “Kim tezroq gap tuzadi?” kabi o'yinlar orqali o'quvchilar so'zlarni to'plash va gap tuzish jarayonida faol ishtirok etadi.

5. *“So'z latofati” metodi.*

Maqsadi:

Esda saqlash, talaffuz va ritmni rivojlantirish.

Mohiyati:

O'quvchilarda tez fikrlash, she'r yodlash tez aytish maqol va topishmoq aytish orqali og'zaki nutqni takomillashtirish.

Darsda qo'llash shakli: Har darsda mavzu yuzasidan qiziqarli aforizmlar, topishmoqlar yoki maqollar aytish. She'rni ifodali o'qishga o'rgatish. Har xil maqollar hikmatli so'zlar yodlatish.

Yuqoridagi metodlardan foydalanib, maktab darsliklari mashqlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan 6-sinf ona tili darsligida berilgan “Peshtoqdagi bitiklar” mavzusini olsak bo'ladi. Bu mavzuda berilgan rasmlar topshiriqlar asosida metodlarni ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Ko'cha-ko'yda xabar, ma'lumot, reklama sifatida berilgan lavhalar va ularning imlosiga doir bilimlar, davlat tiliga hurmat, reklamaga oid til birliklari, e'lon matnini yaratish kabi topshiriqlar berilgan. O'quvchilar og'zaki tarzda rasmlarga qarab ularning tog'ri yoki noto'g'ri yozilganini tekshirib chiqishadi va rasmga mos hikoya tuzishlari mumkin. Rasmga qarab hikoya tuzish orqali dastlabki metod “Erkin fikrlar maydoni” metodi rivojlanadi. Hikoya orqali barcha o'quvchilar o'z fikrlarini to'liq bayon qilishadi va fikr almashishadi. Bu jarayonda esa o'quvchilar nutqi rivojlanadi. Yoki bo'lmasa, mavzuda berilgan rasmlarga reklama roliklarini ham yaratishlari mumkin. Bu jarayonda esa, o'quvchilarda aktyorlik qobiliyati rivojlanadi va ular reklama qilmoqchi bo'lgan mahsulotlariga nom berishlari yoki uni har xil maqtovli gaplar bilan bo'rttirib tasvirlab berishlari orqali nutqlari rivojlanishi mumkin.

Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi- ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar rivojlanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'quvchilarda o'z-o'zidan teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy me'rosini o'rganishlari kerak. Albatta bu pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar matnlar o'quvchining lug'at

boyiligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so‘zlash, insho yozishni o‘rganibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o‘quv adabiyotlariga yo‘naltirilsa ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi.¹⁸

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ona tili darslari orqali o‘quvchida gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish to‘g‘ri yondashuv bo‘lmaydi. Chunki o‘quvchi maktabga gapirishni o‘rganib keladi, ya‘ni tilni tashuvchilari o‘z ona tillarida gapirishni oila davrasida uy sharoitida o‘rganadi. Maktabda o‘quvchida so‘zlash, nutq so‘zlash malakasini rivojlantirish zarur. Buning uchun, avvalo, metodik ta‘minotni yaratib berish lozim. O‘quvchini ravon va ta‘sirchan nutq so‘zlashga o‘rgatish uchun unga didaktik ahamiyati katta bo‘lgan nasriy matnlarni mustaqil o‘qish va mustaqil fikr bildirib xulosa chiqara olishlari kerak. Bu jarayonda, qaysidir tovushlarni o‘qiy olmasa yoki ayta olmasa fonetik mashqlar, leksik mashqlar, orfoepik mashqlar taqdim etish kerak. Shuningdek, nutqning ta‘sirchanligini oshirish uchun o‘quvchiga maqol, matal, ibora va aforizmlar yodlatish va ularni qatnashtirib gaplar tuzish bo‘yicha sintaktik mashqlar bajartirish lozim. Bularning hammasi bir tizimga solinsa, metodik ta‘minot hosil bo‘ladi. Mana shu jarayonlarni bosib o‘tgan uzliksiz mashq qilgan o‘quvchi ravon va ta‘sirchan nutq so‘zlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkinova D. “Og‘zaki nutqning psixolingvistik tahlili”. Toshkent -2018. 21-bet.
2. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., “O‘qituvchi”, 2003-yil.
3. Qosimova K. , Matchonov S. , G‘ulomova X. , Yo‘ldosheva SH. , Sariyev. SH. Ona tili o‘qitish metodikasi. T., Noshir, 2009.
4. Mo‘minov S., Nurmonova D., Karimova O. Nutq madaniyati, Toshkent, - 2005.
5. Nutq madaniyatiga oid masalalar. Fan, -1973.
6. Raxmonqulova. S. O‘zbek tili darslarida ogzaki va yozma nutqni rivojlantirish. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. Metodik yondashuvlar, mashqlar, metodlar haqida: 22-35-bet.
7. Sobirova M. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchi so‘z boyiligini oshirish. Til va adabiyot ta‘limi. Toshkent. 1998.
8. To‘xtaev N. va boshqalar. Nutq madaniyati. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
9. Og‘zaki nutq, til boyligi, nutq uslublari haqida: 46-58-b.
10. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. T. “O‘qituvchi”, 1992

¹⁸ Hamroyev G‘. H. Ona tilidan o‘quv topshiriqlari tuzish metodikasi. Monografiya -Toshkent, Donishmand ziyosi, 2021. 157-b,